

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI VA ITALIYA O‘RTASIDAGI AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHGA INTILISH BORLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-may kuni amaliy tashrif bilan Qozog‘istonga keldi.



Ostona xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Qozog‘iston Bosh vaziri Oljas Bektenov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Davlatimiz rahbari shu kuni Ostona shahrida “Markaziy Osiyo — Italiya” sammitida ishtirok etdi.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida o‘tkazilgan

tadbirda Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdilar.

Uchrashuvda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Italiya o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi. Xususan, investitsiya va texnologiyalar, “yashil”

iqtisodiyot sohalarida sheriklikni rivojlantirish, ta’lim va madaniy dasturlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Prezidentimiz o‘z nutqining avvalida ushbu tadbir joriy yil aprel oyida Samarqandda o‘tgan sammitda Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasida erishilgan strategik sheriklik to‘g‘risidagi kelishuvlarning uzviy davomi ekanini ta’kidladi.



Ushbu formatda, avvalo, mamlakatlari-mizning texnologik, sanoat va intellektual salohiyatini inobatga olgan holda samarali amaliy hamkorlikni rivojlantirishga intilish borligi qayd etildi.

Bugungi global va mintaqaviy siyosatdagi tendensiyalarni, xavfsizlik va taraqqiyotga nisbatan umumiy tahdidlarning kuchayishini hisobga olgan holda Italiya bilan ko‘p

tomonlama muloqotga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda.

Shu bilan birga, mintaqaning Italiya bilan ko‘p asrlik savdo va madaniy aloqalari yangi bosqichdagi keng qamrovli sheriklik uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘tamoqda.

Kun tartibidagi masalalarga o‘tar ekan, O‘zbekiston rahbari “Markaziy Osiyo —

Italiya” formatidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z qarashlarini bayon etdi.

Avvalo, qator dolzarb xalqaro masalalar yuzasidan yondashuvlarni muvofiqlashtirish uchun tashqi ishlar vazirliklari darajasida muntazam muloqotlarni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “MARKAZIY OSIYO – ITALIYA” SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Sammitni yuksak darajada tashkil etgani va an’anaviy mehmondo’shtlik uchun Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Qosim-Jomart Kemelovich Toqayev sha’niga aytilgan minnatdorlik so‘zlariga qo’shilaman.

Italiya Vazirlar Kengashi Raisi, hurmatli Jorja Meloni xonimga bugungi uchrashuvni tashkil etish haqidagi tashabbusi uchun yana bir bor tashakkur izhor etaman.

Biz ushbu anjumanni yaqinda Samarqand shahrida o‘tkazilgan sammitda Markaziy Osiyo mintaqasining Yevropa bilan strategik sherikligi haqida erishilgan kelishuvlar natijasi deb bilishimizni ta’kidlab o‘tmoqchiman.

O‘zbekiston tomoni ushbu formatdagi samarali amaliy hamkorlikni, avvalo, mamlakatlarimizning texnologik, sanoat va intellektual salohiyatini hisobga olgan holda rivojlantirishga qat’iy azmu qaror qilgan.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! Uchrashuvimiz uchun taklif etilgan kun tartibini to‘liq o‘llab-quvvatlayman.

Global va mintaqaviy siyosiy jarayonlarning bugungi real sharoitida, xavfsizlik va taraqqiyotga umumiy tahdidlar kuchayib borayotgan bir paytda Italiya bilan ko‘p tomonlama muloqot maydonini ishga tushirishimiz nihoyatda zarur edi deb hisoblayman.

Mamlakatlarimizni ko‘p asrlik savdo va madaniy aloqalar tarixi o‘zaro bog‘lab turishini ham alohida qayd etishni istar edim. Ilk diplomatik almashuvlar Kushonlar podshohligi va imperator Avgust hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Bundan ming yillar muqaddam solnomachilar, shoir va mutafakkirlar shaharlarimiz yuqori darajadagi sivilizatsiyaviy taraqqiyotga erishganini qayd etishgan.

Yana bir dalil — XII asrdan boshlab italiyalik olimlar Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sinoning bebaho asarlarini o‘rganishgan va tarjima qilishgan. Mintaqamizdan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy,

Abdurahmon Jomiy, Maxtumquli Firoq‘iy va boshqa mashhur mutafakkirlar asarlarining noyob nusxalari Italiya kutubxonalarida asrab-avaylab saqlanmoqda.

Munosabatlarning bunday boy tarixi yangi bosqichda keng ko‘lamli sheriklik uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hurmatli hamkasblar!

“Markaziy Osiyo — Italiya” formatida o‘zaro hamkorlikning ustuvor jihatlar haqidagi qarashlarimiz borasida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Siyosiy sohada tashqi siyosat idoralari darajasida doimiy muloqotlarni davom ettirish tarafdorimiz. Xalqaro kun tartibida o‘zaro muvofiqlashtirish va kelishilgan yondashuvlarni talab etadigan bir qator dolzarb masalalar mavjud.

Italiya Bosh vaziri, hurmatli Meloni xonimning Ukraina atrofidagi vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralarni tezroq boshlash bo‘yicha faol diplomatik sa’y-harakatlarini olqishlaymiz.

Sizing Yaqin Sharq muqaddas va Afg‘oniston bilan hamkorlik istiqbollarga oid qarashlaringiz uchun minnatdorlik bildiraman.

Kecha Samarqandda biz bu nozik masalalarni batafsil muhokama qildik va yondashuvlarimiz o‘xshash ekanini qayd etdik.

Terrorizm, ekstremizm, radikalizm, narkotrafik va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda ko‘p tomonlama formatlarda ishchi mexanizmlarni va maxsus xizmatlarimiz o‘rtasida axborot almashishni yo‘lga qo‘yishni taklif etaman.

Iqtisodiyot sohasida so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi va investitsiyalar hajmi salkam uch barobar o‘sganini ta’kidlayman.

Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan birgalikda texnologik kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirishda Italiya ishbilamonlar hamjamiyatining

an’anaviy kuchli pozitsiyasini inobatga olib, savdo-sanoat palatalarimiz shafeligida biznes-muloqot uchun doimiy maydon — “Markaziy Osiyo — Italiya” ishbilamonlar klubini tuzishni taklif etaman. Tadbirkorlarning keng ishtirokidagi bunday uchrashuvlar har yili mamlakatlarimiz poytaxtlarida o‘tkazilishi hamda savdo va investitsiya sohasidagi hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Biz, shuningdek, ko‘p tomonlama Sanoat va texnologik kooperatsiya dasturi ishlab chiqilishi va qabul qilinishi muhim deb hisoblaymiz. Bu o‘rinda gap texnologiyalar transferi, ilg‘or bilimlar va eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish, yuqori texnologik sanoat korxonalarini yaratish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish haqida bormoqda.

Mavjud muvaffaqiyatli tajribani inobatga olib, mineral resurslar va qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, elektrotexnika, kimyo, to‘qimachilik, charam-poyabzal, oziq-ovqat va boshqa qayta ishlash sohalari uchun zamonaviy asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, ehtiyot qismlar va sanoat mahsulotlarini mahalliyashtirish, Italiyaning yetakchi brendlari bilan hamkorlikda dizayn markazlarini yaratish kooperatsiyaning muhim yo‘nalishlariga aylanishi mumkin.

Mintaqaviy ahamiyatga molik bo‘lgan loyihalarni amalga oshirish uchun Toshkent hududida Yevropa operatori boshqaruvi ostida maxsus sanoat parkini yaratish ishlariga kirishdik.

Kooperatsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun Italiyaning “SACE” va “SIMEST” davlat agentliklari, shuningdek, qo‘shma investitsiya jamg‘armalarini jalb qilish zarur deb hisoblaymiz.

Biz Italiya hukumati bilan “yashil” transformatsiya sohasidagi samarali hamkorlikni yuksak qadrlaymiz. Zarari gazlar chiqarishni qisqartirish bo‘yicha milliy dasturlar ijrosiga ko‘maklashishga qaratilgan ko‘p tomonlama platformalarni ishga tushirish orqali keng ko‘lamli sheriklikni rivojlantirishga umid qilamiz.

Italiyaning yetakchi ishlab chiqarish va muhandislik kompaniyalarini jalb etgan holda, qayta tiklanadigan energetika, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarga “yashil” energiya yetkazib berish, korxonalar auditi va energiya samaradorligini oshirish, suv infratuzilmalari obyektlarini modernizatsiya qilish, vodorod texnologiyalarini rivojlantirish sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishga tayyormiz.

Gumanitar sohadagi hamkorlik haqida so‘z yuritganda, o‘zining ta’lim dasturlarini sezilarli ravishda kengaytirib borayotgan Turin politexnika va Piza universitetlarining Toshkentdagi filiallari samarali faoliyat ko‘rsatayotganini alohida ta’kidlashni istar edim. Italiyaning boshqa yetakchi oliy ta’lim muassasalarining mintaqamizga nisbatan ortib borayotgan qiziqishini olqishlaymiz.

Muhandislik, dizayn, suvni tejash va biologik texnologiyalar kabi yo‘nalishlarda ilmiy ishlarni amalga yaratish va moliyalashtirish, akademik almashuvlar va kadrlar tayyorlash dasturlari uchun “Markaziy Osiyo — Italiya” ilmiy-ta’lim konsorsiumini tashkil etish tashabbusini ilgari suramiz.

Yetakchi operatorlar o‘rtasida sheriklik aloqalarini yo‘lga qo‘yish va qo‘shma turistik mahsulotlarni yaratish uchun sayyohlik alyansini ishga tushirishdan manfaatdormiz.

Yaqinda Rim va Florensiya shaharlarida o‘tkazilgan ko‘rgazma va madaniy tadbirlar italiyalik do‘stlarimizda juda katta qiziqish uyg‘otganini ta’kidlash o‘rinlidir.

Shu munosabat bilan kelgusi yili Xivada mintqa mamlakatlari va Italiya yoshlarining Kreativ iqtisodiyot va madaniy almashuvlar forumini o‘tkazishni taklif etaman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Nutqimning yakunida O‘zbekiston “Markaziy Osiyo — Italiya” formatida o‘zaro manfaatli va ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga sodiq ekanini yana bir bor tasdiqlayman.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI MUBORAK QURBON HAYITINI NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Xalqimizga xos mehr-oqibat, insonparvarlik, shukronalik, saxovat va bag‘rikenglik kabi ezgu fazilatlar timsoli bo‘lgan, asrlar davomida ma’naviy hayotimizda muhim o‘rin tutib kelayotgan muborak Qurbon hayitining ahamiyati Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish jarayonlari hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi sharoitda tobora ortib borayotganini hisobga olib hamda ushbu qutlug‘ ayyomni har tomonlama munosib kutib olish va o‘tkazish, shuningdek, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug‘lash maqsadida **qaror qilaman:**

1. 2025-yilda muborak Qurbon hayitining birinchi kuni 6-iyun — juma kuniga to‘g‘ri kelishi to‘g‘risida O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma’lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda 6-iyun Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.

2. Aholining Qurbon hayiti bayramini munosib o‘tkazishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida 2025-yil 7-iyun (shanba) kuni olti kunlik ish haftasi tartibi bo‘yicha ishlaydigan xodimlar uchun qo‘shimcha dam olish kuni etib belgilansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda hududlarda Qurbon hayitini xalqimizning **milliy an’ana va urf-odatlariga uyg‘un** holda o‘tkazish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Turizm qo‘mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun Qurbon hayiti kunlarida **mo‘tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamlorga ziyoratlarni tashkil etish** maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratsin.

5. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Qurbon hayitini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q. Davletov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 30-may



1-iyun Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI VA ITALIYA O‘RTASIDAGI AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHGA INTILISH BORLIGI QAYD ETILDI

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, giyohvand moddalar savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashda ko‘p tomonlama sheriklik va maxsus xizmatlarning axborot almashish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish taklif etildi.

Iqtisodiy sohada davlatimiz rahbari so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi uch barobar oshganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan texnologik hamkorlik loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Italiya ishbilarmon doiralari in-novatsion rivojlanish borasida an‘anaviy kuchli mavqei hisobga olib, mamlakatlirimiz savdo-sanoat palatalari shafeligida biznes muloqoti uchun doimiy maydon — “Markaziy Osiyo — Italiya” ishbilarmonlar klubini tashkil etish taklif qilindi. Tadbirkorlar ishtirokidagi bunday uchrashuvlar har yili mintaqamamlakatlari va Italiya poytaxtlarida o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Prezidenti texnologiyalar transferi, ilg‘or bilim va tajribalarni joriyetish, yuqori texnologiyali sanoat ishlab chiqarishlarini tashkil etish uchun qulay sharoitlarni yaratishni nazarda tutuvchi ko‘p tomonlama Sanoat va texnologik hamkorlik dasturini ishlab chiqish va qabul qilish muhimligini ta’kidladi.

Mavjud muvaffaqiyatli tajribani hisobga olib, mineral resurslar va qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ish-

lash; elektrotexnika, kimyo, to‘qimachilik, charm, oziq-ovqat va boshqa qayta ishlash tarmoqlari uchun zamonaviy uskunalar ishlab chiqarish; butlovchi qismlar va sanoat mahsulotlarini mahalliyashtirish; Italiyaning yetakchi brendlari ishtirokida dizayn markazlarini tashkil etish hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lishi mumkinligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyatidamintaqaviy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish uchun Yevropa operatori boshqaruvida maxsus industrial park tashkil etilayotganini ma’lum qildi.

Shu bilan birga, Italiyaning “SACE” va “SIMEST” davlat agentliklari hamda qo‘shma investitsiya fondlarini hamkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga jalb qilish muhimligi ta’kidlandi.

“Yashil” transformatsiya sohasidagi Italiya bilan samarali hamkorlikni yuqori baholab, O‘zbekiston yetakchisi uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha milliy dasturlarni amalga oshirishga ko‘maklashadigan ko‘p tomonlama platformani yo‘lga qo‘yish orqali keng qamrovli sheriklikni rivojlantirishga chaqirdi.

Qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi loyihalarni, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga “yashil” energiya yetkazib berish, Italiyaning yetakchi ishlab chiqaruvchilari va muhandislik kompaniyalarini jalb etgan holda korxonalarni auditdan o‘tkazish va energiya samaradorligini oshirish, suv infratuzilmasi obyektlarini modernizatsiya qilish va vodorod texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga tayyorlik bildirildi.

Toshkentdagi Turin politexnika va Piza universitetlari filiallari samarali faoliyat yuritayotganini ta’kidlar ekan, davlatimiz rahbari Italiyaning boshqa yetakchi oliy o‘quv yurtlarining mintaqaga qiziqishi ortib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

O‘zbekiston Prezidenti muhandislik, dizayn, suv tejamlorligi va biotexnologiyalar kabi yo‘nalishlarda ilmiy ishlanmalar, akademik almashinuv va kadrlar tayyorlash dasturlarini amalga oshirish va moliyalashtirish uchun “Markaziy Osiyo — Italiya” ilmiy-ta’lim konsorsiumini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

Yetakchi turoperatorlar o‘rtasida sheriklik aloqalarini o‘rnatish va qo‘shma sayyohlik mahsulotlarini yaratish maqsadida turizm alyansini tashkil etishdan manfaatdorlik bildirildi.

Italiya jamoatchiligi Rim va Florensiyada o‘tkazilgan ko‘rgazma va madaniy tadbirlarga katta qiziqish bildirgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Shu munosabat bilan kelgusi yili Xiva shahrida mintaqamamlakatlari va Italiya yoshlarining kreativ iqtisodiyot va madaniy almashinuv forumini o‘tkazish taklif qilindi.

Sammitda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari va Italiya Bosh vaziri ham nutq so‘zladi. Tadbir yakunida Qo‘shma bayonot qabul qilindi.

Shuning bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON

HAR TOMCHISI OLTINGA TENG NE‘MAT

Xonadonimizda oqib turgan toza suvning qadrini bilish va asrash burchimizdir



Inson sog‘lom va uzoq umr kechirishda toza ichimlik suvning ahamiyati beqiyos. Ammo bugungi davrga kelib dunyo aholisining 26 foizi toza ichimlik suv, 46 foizi esa oddiy sanitariya sharoitlaridan mahrum holda hayot kechirmoqda. Yuqumli kasalliklarning 80 foizdan ortig‘i aynan ichimlik suv sifati pastligi hamda suv ta‘minotida sanitar-gigiyenik qoidalar buzilishi bilan bog‘liq ekani holat nechog‘liq jiddiyligini anglatadi.

Aholini toza ichimlik suv bilan ta‘minlash mamlakatimiz uchun ham o‘ta dolzarb masala. Shu bois, bu sohani rivojlantirish va zamonaviy infratuzilma yaratishga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilyapti. Oxirgi 8 yilda ichimlik suv va ogqova suv xizmatlari sohasiga 27,5 trillion so‘m yo‘naltirildi. Natijada hozirga kelib aholi mavzalarining 81 foizi ichimlik suv, 20 foizi ogqova tizimi bilan ta‘minlandi.

So‘nggi yillarda ichimlik suv va ogqova xizmatlari sifati va qamrovini oshirish maqsadida yirik infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirildi. Misol uchun, Surxondaryo viloyatida To‘palang suv ombori asosida amalga oshirilgan loyiha doirasida 147 kilometr tarmoq tortilib, Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi va Qumqo‘rg‘on tumanlarida 141 ming aholining ichimlik suv ta‘minoti va sifati tubdan yaxshilandi.

Jizzax viloyatida Zarafshon daryosi resurslaridan oqilona foydalanish orqali Do‘stlik, Paxtakor, Mirzacho‘l tumanlari va Jizzax shahridan 286 ming aholisi toza ichimlik suv bilan uzluksiz ta‘minlanmoqda. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida “Oqsuv — Dehqonobod” loyihasi doirasida 76 ming aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlandi. Ahamiyatli, tumanida aholining ichimlik suv bilan ta‘minlanish darajasi 1,8 foizdan 51,7 foizga ko‘tarildi.

Toshkent viloyatida Qodiriya suv inshootini rekonstruksiya qilish orqali 8 ming aholi ilk marotaba ichimlik suvdan bahramand bo‘lgan bo‘lsa, yana 265 ming aholining suv ta‘minoti sezilarli darajada yaxshilandi.

Buxoro viloyatining Olot va Qorako‘l tumanlaridagi loyihalar orqali 275 ming aholi ilk bor toza ichimlik suv bilan ta‘minlandi.

Ayni paytda aholining turmush sifati va salomatligi uchun g‘oyat muhim bu yo‘nalish izchil kengaytirib borilmoqda. Ijtimoiy va hududiy dasturlar doirasida ko‘plab inshootlar barpo etilmoqda. Shu bilan birga, ichimlik suv ta‘minotida zamonaviy boshqaruv va nazorat tizimlarini joriy etish orqali xizmatlar sifati oshirilmoqda. Yagona “UzWater” billing tizimi ishga tushirilib, ilgari ko‘lanilgan 5 xil to‘lov tizimining murakkabligi bartaraf etildi. Iste‘molchilar uchun takomillashtirilgan shaxsiy kabinet joriy etilib, u orqali iste‘molchilar to‘lovlar hisobotini oylar, yillar kesimida ko‘rib borishi, shu yerning o‘zida to‘lovni amalga oshirishi va hisoblagichlar ma‘lumotini kiritishi imkoni yaratildi.

Geoaxborot tizimi orqali inshootlar va tarmoqlar xaritasi yaratilmoqda. Bugungacha Toshkent viloyatining Chirchiq, Nurfashon va Ohangaron shaharlarida to‘liq, Sirdaryo viloyatining Guliston va Yangiyer shaharlarida qisman geoaxborot tizimlari bazasi yaratildi. Hozir bu tizim Namangan va Xorazm viloyatlarida ham shakllantirilmoqda.

SCADA tizimi orqali suv inshootlari ustidan masofaviy monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv imkoniyatlari yaratildi. Tizim Toshkent, Buxoro va Jizzax viloyatlarida faol joriy qilinmoqda.

“Water Lab” axborot tizimi tatbiq etilmoqda. Bunda respublika bo‘ylab ichimlik suv sifati nazorat qilish imkoniyati sezilarli darajada kengaytiriladi. Buning uchun mavjud laboratoriyalar to‘liq raqamlashtirilib, hisobotlari elektron tarzda yuritiladi. Bugungi kunga qadar 38 ta yirik suv inshooti to‘liq raqamlashtirilib, real vaqt rejimida nazorat qilinmoqda.

TURIZM QISHLOQLARI SAFI YANA BITTAGA KO‘PAYDI

Andijonning Xo‘jaobodida asli Toshota, xalq tilida Imomota nomi bilan atalguvchi so‘lim qishloq bor. Qirg‘izistonga chegaradosh hududda, tog‘lar orasida joylashgan jozibador maskanning umumiy maydoni 3961 gektar, aholisi 3000 dan ziyod. Toza havosi, go‘zal manzarasi bilan chet elliklar u yqda tursin, mahalliy aholini ham maftun etadigan bu joyga yaqinda turizm qishlog‘i maqomi berildi.

Davlatimiz rahbari Andijonga navbatdagi tashrifi doirasida o‘tkazilgan yig‘ilishda viloyatning turizm salohiyatidan to‘liq foydalanish zarurligini ta’kidlagandi. Xonoboddagi Kampirovot, Bulqoboshidagi Shirmonbulq, Xo‘jaoboddagi Toshota mahallalarida turizm markazlari tashkil qilinsa, qo‘shimcha 1 million sayyohni jalb qilish mumkinligi aytilgandi. Ayniqsa, Imomota qishlog‘idagi muqaddas ziyoratgohga qiziquvchilar juda ko‘p. 2022-yil yozda qishloqqa bir kunda 2-3 ming mehmon kelgan bo‘lsa, bugun kuniga 5-6 mingga yetdi. Albatta, bu o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Imomota 2022-yilda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturiga kiritilib, to‘liq rekonstruksiyaadan chiqdi. Infratuzilma yaxshilanishi evaziga sayyohlar soni keskin ortdi. Tadbirkorlarga kreditlar ajratilib, odamlar bandligi ta‘minlandi. Shu paytgacha chorvachilik va boshqa og‘ir mehnat bilan shug‘ullangan ko‘plab odamlar yakka tartibdagi tadbirkorlarga aylandi. Har kim qo‘lidan kelganicha mehmonlarga nimanidir tortiq qilishga urinyapti. Xullas, sayyohlar qancha ko‘paysa, mahalliy aholiga shuncha yaxshi.

“Toshota” MFYdagi hokim yordamchisi Avazbek Islomovning aytishicha, qishloqqa qiziquvchilar soni ortishida narx-narvonning yaqin-atrofdagi dam olish maskanlaridagidan teng barobar arzonligi ham sabab bo‘lyapti. Masalan, Bog‘ishamol, Shohimardon, Shirmonbulq, Xonobod, Nanay, Chodakda bu yerdagi narxlarini topib bo‘lmaydi. Bolajonlarning ko‘nglini oltan deganlarga 5-10 ming so‘mlik attraksionlar, 3-5 ming so‘mlik muzqaymoqlar borligi chindan ham ajablanarli.

Mehmonlarning 40 foizi Qirg‘izistonning O‘sh, Jalolobod, Botken, Tojikistonning Xo‘jand, Konibodom tumanlaridan keladi. O‘sha hududlarda yashaydigan etnik o‘zbeklar ham doimiy ziyoratga, dam olishga kelib turadi. Mahalliy mehmonlarni-kun, aytmasa ham bo‘ladi. Ayniqsa, yozda shamba, yakshanba kunlari nihoyatda gavjumlik kuzatiladi. Sof, salqin havo, shifobaxsh buloq suvi ularni o‘ziga tortaveradi. 7 ta buloq, 7 ta ungur (g‘or) ham ko‘pchilikka qiziq tuyuladi. Ungurlarning

eng kattasi Beshungur bo‘lib, Chilustun tog‘i cho‘qqisida joylashgan. Eng kichigi esa ziyoratgohning ichida. Keng jilg‘a deb ataladigan ungurga 600-700 ta qo‘y sig‘adi. Jala quygan payti cho‘ponlar va qo‘ylar shu g‘orga kirib panalaydi. Suvi sho‘r bo‘lgan yuqori Imomota ko‘lida yurtimizning hech qaysi hududida uchramaydigan qisqichbaqa turi borigini hamma ham bilavermasa kerak.

Mahalladan o‘tgan uzun ariq bo‘yi esa qator dam olish maskanlari, choyxona, do‘konlar va xonadonlar bilan fayzli. 2022-yilda atigi bittagina mehmon uyi bo‘lgan qishloqda bugun 100 ga yaqin mehmon uyi, xostel bor. Ular mingdan ziyod sayyoh va ziyoratchiga xizmat ko‘rsatadi. Sharoitga qarab kuniga 100 dollardan 300 dollargacha ijaraga berilyapti. Xonadonlarda stol tennisi, bilyard o‘yinlari, hovuz, umuman, maroqli dam olish uchun barcha sharoitlar bor. Hududdagi ikki tog‘ cho‘qqisi o‘rtasida mahalliy tadbirkor Jamoliddin Tursunov tomonidan uzunligi 300, balandligi 40 metrga yaqin osma dor yo‘li qurildi. Yo‘lning 18 metr qismiga Xitoydan keltirilgan oyna qo‘yilgan. Endilikda osma ko‘priki yoniga bitta uchish yo‘lagi ham qo‘shildi. Yangi attraksionlar o‘rnatildi. O‘nlab savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchasi ishga tushirildi. 2024-yilda hududga 16 mingdan ziyod xorijlik, 81 ming mahalliy sayyoh tashrifi kuzatilgani holda bu yil



ushbu raqamlarni 2,5 barobar oshirish ko‘zda tutilgan. Ayni paytda Prezident qarori bilan 31 gektar yerning toifasi o‘zgartirilib, tasdiqlangan reja asosida turizm obyektlarini ishga tushirish harakatlari davom etyapti. 2 gektar maydonda avtovokzal va avtomobillar turargohi qurilish rejalashtirilayotir. Zero, mehmonlar mashinalarini qulay yerga joylashtirish uchun ham ancha vaqt yo‘qotadi. Shuningdek, Andijon — O‘sh yo‘lidan Imomota qishlog‘igacha bo‘lgan 14 kilometr yo‘l dasturga kiritildi. Andijon shahridan, Xo‘jaobod markazidan Imomotaga qatnaydigan transportlar bo‘lsa, odamlarga yanada qulaylik tug‘iladi. Qirg‘izistonlik sayyohlarning “Do‘stlik” chegara postidan Imomotaga olib boradigan transport qo‘yilishini so‘rayotgani ham bizning foydamizga. Shu ma’noda, bu kabi takliflar umumlashtirilib, albatta, ijobiy yechimini topadi. Zero, minglab sayyoh va ziyoratchilar kelib dam oladigan turizm qishlog‘i bugunung keliblariga javob beradigan manzil bo‘lishi kerak.

Sayyohlik

Darvoqe, yangi maqomga ega bo‘lgan kuni qishloqda qator tadbirlar tashkil etildi. Mehmonlar, ziyoratchilar, faxriylar mahallaga kirish hududidagi darvoza oldida tantanali kutib olindi. Ular yaqinda ish boshlagan tadbirkor Valijon Yoqubov va ko‘plab u singarilarning mehmon uyida yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Hovuz, yozgi, qishki oshxona, mehmonxona, dam olish xonasi, qo‘yingki, ko‘ngilli hortiq chiqarish uchun barcha qulayliklarni ko‘rib ko‘ngillar yayradi. Murodjon Muhammadaliyev kabi tajribali mehmon uylari sobiblari bu borada boshqalarga yo‘l ko‘rsatib, ibrat bo‘layotganini ko‘rib, ahillikka ko‘z tegmasin, deyishdi.

Imomota ziyoratgohi markazida, ya’ni qabr-maqbara oldidagi maydonda viloyatdagi turfirmalar ishtirokida ichki turizm yarmarkasi tashkil etildi. Viloyatdagi 20 dan ortiq turfirmaning ko‘rgazmalari, hunarmandlik mahsulotlari, tasviriy san’at asarlari ham mehmonlar diqqatini tortdi. — Turizm qishlog‘i maqomi berilgani bu yerga keluvchilar soni ortishiga, pirovardida viloyatimizda ichki turizm yanada rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, — dedi “Mandarin Tour” turfirmasi boshqaruvchisi Azizbek Qo‘chqorov. — Sayyohlar safi ortishi, albatta, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatiini yaxshilashni talab qiladi. Bu borada sayyohlik firmalari, xususlan, bizning firmamiz tomonidan ham zarur ishlar qilinmoqda. Imomotaga turizm qishlog‘i maqomi berilgani to‘g‘risidagi sertifikatni Xo‘jaobod tumani hokimiga Turizm qo‘mitasi raisi maslahatchisi Feruz Dodiyeyp topshirdi. Mas’ullar bilan hududda turizmini yanada rivojlantirish uchun mavjud muammolarni bartaraf etish, xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish, ishlarni yanada yuqori bosqichga ko‘tarish masalalari muhokama qilindi. O‘ylaymizki, turizm qishloqlarimiz safiga qo‘shilgan Imomota ham yaqin kelajakda dunyo jahongastalari e‘tiboriga tushib, yurtimizning eng ko‘p sayyohlar tashrif buyuradigan gavjum nuqtasiga aylanadi.

Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yurtimizdagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar asosida davlat hokimiyatiga tegishli qator vazifalar ijrosini ta‘minlash endi mahallalar zimmasiga yuklatilmoqda. Bu islohotlar markazidan, avvalo, “mahalla yettiligi” tizimi joy olgan bo‘lib, unga mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori kiradi. Bu “yettilik” jamoaviy mas’uliyat asosida mahalladagi muammolarni aniqlab, hal etishga harakat qilmoqda. Shu bilan birga, har bir mahallaga bank xodimi birlashtirilishi aholiga moliyaviy xizmat ko‘rsatishda, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita bo‘lmoqda.

YANGI MAHALLA RAISLARI EZGU ISHLARGA CHO‘GANADI

Har bir yo‘nalish bo‘yicha vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash, “mahalla yettiligi” xodimlari ish faoliyatini muvofiqlashtirish, aholi bilan yaqin muloqot o‘rnatish, hududdagi muammolarni hal etishda mahalla raisidan katta tajriba va mahorat, odamlar kayfiyati hamda yashash tarzini yaxshi bilish talab qilindi. Bunday tajriba qisqa muddatda o‘rtirilmaydi. Shuning uchun mahalla raislarining vakolat muddati uch yildan besh yilga uzaytirilishi ularga o‘z tajriba va mahoratini to‘liq namoyon etishi uchun imkon beradi.

— Mahalla instituti nufuzli o‘zini o‘zi boshqaruv organiga aylangani mahalla raislari saylovi davomida yanada yaqqolroq ko‘rindi, — deydi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Mavla Anorboyev. — Viloyatda fuqarolar yig‘inlari raislari saylovi yakunlandi. Joriy yil 1-maydan boshlanib 21-maygacha davom etgan saylov fuqarolar yig‘inlarining barchasida muqobillik asosida o‘tdi. 230 ta mahalladan jami 612 nomzod ko‘rsatildi. Ularda aholi tomonidan vakil qilingan 80 ming 104 saylovchining 65 ming 693 nafari yoki 82 foizi qatnashdi. Jarayonda mahallaga raislik hech kimga siylov yo‘li bilan bildiriladigan yuksak ishonch ekanini nomzodlar ham, saylovchilar ham to‘liq anglagan holda ishtirok etdi.

Saylangan raislarning 45 foizi ilk bor saylanganlar, 8 foizi ayollar va 4 foizi deputatlardir. Ular orasida oliy ma‘lumotlilar 92 foizni, yosh jihatidan esa 51-60 yoshlilar 41 foizni tashkil etdi. Bu xalqimizning mahallasini ishonchli qo‘llarga topshirishga bo‘lgan intilishi, islohotlarga ishonchini yaqqol ko‘rsatadi. Saylangan raislarning katta qismi ta‘lim, iqtisodiyot, muhandislik, huquqshunoslik kabi sohalar vakillari.


Sharof Rashidov tumani Ko‘rpaosay mahallasida saylovchilarning 91 foizi amaldagi rais Shohjon G‘oyibnazarovga ishonch bildirdi. Bu ishonchga u avvalgi muddatda yaxshi faoliyat ko‘rsatganidan tashqari saylovoldi dasturining ishonchli va asosli ekani tufayli erishdi. Uning 2025-yilda mahallani ishsizlikdan, jinoyatchilikdan, oilaviy ajrimlardan xoli hududga aylantirishga qaratilgan dasturi mahalladoshlariga ma‘qul keldi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

— Hududning obodligi, aholining turmush farovonligini, elning osoyishaligini ta‘minlashda fuqarolar yig‘ini raisi zimmasiga yuklangan mas’uliyat juda katta, — deydi Ko‘rpaosay mahallasi faoli Rahimjon Yo‘lchurayev. — Shuning uchun muqobil nomzodlarning dasturi bilan chuqur tanishib chiqib, avvaldan ishlab kelayotgan raisimizni sayladik. Oliy ma‘lumoti, aholi bilan ishlashda katta tajribaga ega raisning mahallani yanada obod qilishga, ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni hal etishga, ma‘naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilashga bilimi, tajribasi, kuch-g‘ayrati yetishiga ishonamiz. Qo‘yilgan barcha talablarni faoliyatida, shaxsiy hayotida mujassam etib, munosiblar orasidan eng munosib topilgan nomzodlar raislikka saylangani biz vatan ichra mo‘jaz vatan ataydigan mahallaning yanada obod, turmushimiz farovon, hayotimiz tinch va osoyishta bo‘lishi yo‘lidagi navbatdagi ezgu ishlardan biri bo‘ladi. Yangi saylangan oqsoqollar mahalladoshlarining yuksak ishonchini oqlash uchun shu ezgu maqsadni ko‘zlab ishga kirishdi.

Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



1-iyun

Xalqaro bolalarni
himoya qilish kuniUCHINCHI RENESSANS
BUNYODKORLARI HUQUQI HIMOYASIBahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Sog‘lom va barkamol farzand nafaqat ota-ona va oila, balki butun jamiyatning quvonchi va tayanchidir. Shu bois, kelajak taraqqiyotini ko‘zlagan har bir millat va davlat unib-o‘sib kelayotgan navqiron avlod kamolotiga katta e‘tibor qaratadi. Oilada sog‘lom farzand dunyoga kelishi va kamolga yetishi uchun barcha zarur sharoit yaratiladi.

Shunga qaramay, bugungi yuksak taraqqiyot asrida ham bolalar hayoti, salomatligi va xavfsizligini ta‘minlashda yechimini kutayotgan muammolar oz emas. Ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 5 yoshgacha bo‘lgan deyarli 400 million bola oilada doimiy psixologik agressiya yoki jismoniy jazo choralari ostida qolmoqda. Shuningdek, 160 million bola majburiy mehnatga jalb qilinayotir.

Odamlar savdosidan jabr ko‘rganlarning 35 foizi aynan bolalar ekani achinarli hol. Ushbu global muammo jahon hamjamiyatini tashvishga solmay qo‘ymaydi, albatta. 1-iyunning Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni sifatida nishonlanishi zamirida ham kelajak taraqqiyotiga to‘g‘onoq bo‘layotgan ana shunday muammolarga insoniyatning e‘tiborini yana bir karra qaratish, bolalar huquqlari himoyasi yo‘lida o‘zaro sa‘y-harakatlarni birlashtirish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish maqsadi ko‘zlangan.

Aholisining uchdan bir qismini bolalar tashkil etadigan O‘zbekiston uchun ham ushbu masalalar hamisha dolzarb bo‘lib kelgan. So‘nggi yillarda yurtimizda bola huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bolalar huquqlari kafolati yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo‘yildi. Yosh avlodni himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlash borasida tashkiliy-huquqiy asoslar takomillashtirildi. 50 dan ortiq qonun, 400 dan ziyod qonunosti hujjat qabul qilingani, parlamentning Bola huquqlari bo‘yicha vakili — Bolalar ombudsmani instituti ta‘sis etilgani mamlakatimizda ushbu yo‘nalishga qanchalik jiddiy e‘tibor qaratilayotganini yaqqol ifoda etadi.

O‘zbekistonda bolalar mehnatidan foydalanish masalasini hal etishda tarixiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va qat‘iyati bilan qisqa muddatda paxta terimi sohasida bolalar mehnatiga butkul barham berildi.

Bu boradagi sa‘y-harakatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilishi bilan bir qatorda boshqa davlatlar uchun namuna qilib ko‘rsatilmoqda. Jumladan, o‘tgan yili yurtimizga tashrif buyurgan BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish O‘zbekistonda inson huquqlari ta‘minlash borasidagi xayrli ishlarni yuqori baholab, bu o‘zgarishlar nafaqat mintaqaga, balki dunyo mamlakatlari uchun namuna bo‘la olishini ta‘kidlagan edi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonning Bolalar farovonligi bo‘yicha global indeksdagi mavqei oshgani sohadagi ezuq ishlarning yana bir tasdiq‘idir.

“Nabiram uyg‘onishi bilan
“Bog‘chaga ketaman”, deydi”

Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma‘lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda qabul qiladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Biroq bundan 7-8 yil ilgari yurtimizda bu boradagi ahvol butkul qoniqarsiz edi, desak xato bo‘lmaydi. Qishloq yuqorda tursin, katta shaharlarda ham bolalarni bog‘chaga berishda uzundan uzun navbatlar bo‘lar, tanish-bilish

bo‘lmasa ish bitishi mashaqqatli edi. Tabiiyki, bu holat aholining jiddiy e‘tirozlariga sabab bo‘lar, ayniqsa, yosh bolali ayollarning ishlashi, sog‘lig‘iga e‘tibor qaratishi, o‘qish va ijodiy-intellektual jihatdan rivojlanishiga to‘sqinlik qilardi.

Prezidentimiz faoliyatining ilk yillaridayoq bu masalalar yechimiga jiddiy e‘tibor qaratib, maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadini ilgari surdi. Tegishli huquqiy hujjatlar qabul qilinib, sohada yangi tizim yaratishga kirishildi. Bugunga kelib esa katta natijalarga erishilganini hayotning o‘zi yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ayni paytda bolalarning maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga qamrovi 76 foizga, 6 yoshilarning maktabga tayyorlov guruhlariga qamrov darajasi esa 96 foizga yetkazilgani buning isboti.

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, mamlakatimizning chekka mahallalarida “Aqlvoy” avtobuslar mobil guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. UNICEF bilan hamkorlikda turli yoshdagi bolalar maktabgacha ta‘lim guruhlariga qamrab olindi. Jahon banki bilan hamkorlikda qator tumanlarda “Ilk rivojlanish markazlari” ochildi. Shuningdek, tuman va shaharlarda tayanch maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, elektron doska va planshetlar bilan ta‘minlandi.

Ta‘lim-tarbiya jarayoniga innovatsiya, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida barcha maktabgacha ta‘lim tashkilotlari metodistlari lavozimi negizida direktor o‘rinbosari lavozimi joriy etilgani soha rivojida yana bir muhim qadam bo‘ldi. “Metodik mahorat kuni” tadbirlarini o‘tkazgan direktor o‘rinbosarlariga lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo‘shimcha har oylik ustama to‘lash tizimi joriy etildi.

Tayanch ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha ta‘lim pedagoglari uchun direktor o‘rinbosarlari tomonidan “Metodik mahorat soati” tadbirlari o‘tkazilmoqda. Bu chora-tadbirlar maktabgacha ta‘lim tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish, hatto chekka qishloqlarda ham bolalarni bog‘chalarga jalb etish imkonini berayotir.

Bugungi zamonaviy imkoniyatlarni ko‘rib, bolalik yillarim yodimga tushadi. O‘shanda ikki qishloq narida bog‘cha ochilganini, birga o‘ynaydigan ba‘zi dugonalarim unga qatnayotganini eshitib, “Men ham bog‘chaga boraman”, deb rosa xarxasha qilgan edim. Biroq dalaga tongda ketib, qorong‘i tushdanga qaytadigan ota-onamning uyimizdan ancha uzoqdagi bog‘chaga bizni olib borib kelish uchun imkonini yo‘q edi. Yo‘l o‘slisligi uchun dugonalarimning quvonchi ham ko‘pga bormadi, 2-3 oy o‘tib, ular ham bog‘chadan qolib ketdi.

Ikki yil avval qishloq‘imizda yangi bog‘cha ochilganini eshitib juda quvondim. Qishloqning qo‘q markazidagi muassasa qatnov uchun juda qulay. Ota-onalar ertalab ishga ketishda bolasini bog‘chaga topshirib, ishdan qaytishda olib ketishi mumkin.

— Qishloq‘imizda bog‘cha ochilgani juda yaxshi bo‘ldi, — deydi Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidagi Mustaqillik mahallasida yashovchi Mastura Hazratqulova. — Hozir ikki nabiram bog‘chaga qatnayapti. Dastlabki kunlarda ularning “Bog‘chaga bormayman”, degan xarxashasidan ruhim ancha cho‘kkan edi. Chunki bog‘chada ta‘lim-tarbiya olayotgan bolalarning har tomonlama rivojlanishiga havasim kelardi. Qolaversa, ro‘zg‘orda ham yumush ko‘p, ishdan ortib bolalar ta‘lim-tarbiyasi bilan muntazam shug‘ullanish mushkul. Ammo bog‘cha opalari bor mahorati va mehr-muhabbati bilan nabiralarimni o‘ziga ram etib oldi. Hozir nabiralarim dam olish kunlari ham uyg‘onishi bilan “Bog‘chaga ketaman”, deydi. Bog‘chaga borganidan beri ularning dunyoqarashi o‘sib boryapti, tili biyron, qadami shaxdam, ruhi tetik. Ayniqsa, tengdoshlari bilan do‘st-dugona tutinib, quvnab o‘ynab yurganini ko‘rsam, dilim yayraydi. Chekka qishloqda shahamikidan qolishmaydigan shunday zamonaviy sharoitlar yaratilganidan biz, ayollar juda mamnunmiz.

Endi bu imkoniyatlar yanada kengayadi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan kelgusida Kosonsoy va Toyloq tumanlari tajribasi asosida barcha tuman (shahar)larda bosqichma-bosqich har yili o‘rtacha 50 tadan “Ilk rivojlanish markazlari” faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilangan. Ushbu markazlarga maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinmagan, kam ta‘minlangan, alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan oilalar farzandlari qamrab olindi. Shuningdek, kambag‘allik darajasi yuqori mingta mahallada bittadan oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti ochilishi rejalashtirilgan. Vazirlar

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Mahkamasining tegishli qarori asosida olis va tog‘li hududlarda maxsus jihozlangan 30 ta avtobus negizida mobil guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Mazkur mobil guruhlar zarur mebel va sport jihozlari, o‘yinchoqlar, didaktik materiallar hamda bolalar adabiyotlari bilan to‘liq ta‘minlanadi.

Maktabgacha ta‘limning davlat o‘quv dasturlari xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqiladi hamda maktabga tayyorlov va boshlang‘ich ta‘lim o‘quv dasturlarining o‘zaro uzviyligi ta‘minlanadi. Davlat ta‘lim dasturi asosida xalqaro standartlarga asoslangan o‘quv-metodik majmualar yaratiladi. Bunda kichik va o‘rta guruh bolalarida kognitiv,

Ta‘limning barcha bo‘g‘inida o‘quv-tarbiya ishlarining sifati va natijadorligini oshirish, bitiruvchilarning tanlov imkoniyatini kengaytirish uchun yangi tizim va dasturlar, elektron platformalar ishga tushirilmoqda. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlarning turli sohada erishayotgan yutuqlari ham chakkli emas.

Oila — kamolot qo‘rg‘oni

Oila — hayot bardavomligi va avlodlar uzviyligini ta‘minlovchi tabarruk qo‘rg‘on. Har bir xalq, millatning kelajagi aynan oila bilan



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlardir.

psixomotor va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, katta va maktabga tayyorlov guruh bolalarida bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Davlat ta‘lim dasturi asosida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o‘quv-metodik kontentlar maktabgacha ta‘limni boshqarish axborot tizimida erkin va bepul foydalanish uchun joylashtiriladi. Ushbu axborot tizimida ota-onalarning shaxsiy kabinet orqali bolalarining rivojlanish xaritasiga doir ma‘lumotlar bilan tanishib borishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Bolaning bog‘chadan keyingi kamolot bosqichida maktab ta‘limi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tizimda ham islohotlar jadal kechmoqda. Oxirgi yillarda maktab ta‘limi uchun mablag‘ bir necha barobar oshirildi. Yangi maktablar qurilib, zamonaviy vositalar bilan jihozlanayapti. Ta‘lim dasturlari eng ilg‘or mamlakatlar tajribasiga moslashtirilmoqda, darsliklar yangilanyapti, maktablarga zamonaviy jihozlar olib berilyapti.

Bu yil ana shunday zamonaviy maktablardagi yangicha sharoitlarda ta‘lim olgan 451 mingdan ziyod bitiruvchi mustaqil hayotga qadam qo‘ydi. Ushbu navqiron avlod yangi O‘zbekistonda barpo etishda katta bunyodkor kuch sifatida ishtirok etishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda.

Jumladan, yoshlar zamonaviy ilm va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillar, IT va innovatsion texnologiyalar, ijod va tadbirkorlik sohalarini puxta egallashi uchun hozir 200 dan ziyod OTM, 598 ta texnikum, ko‘plab monomarkaz va texnoparklar, kutubxonalar, madaniyat, san‘at va sport muassasalari samarali faoliyat yuritmoqda.

chambarchas bog‘liq. Chunki inson oilada tug‘iladi va voyaga yetadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham oila instituti davlat muhofazasida ekani, uning rivojlanishi uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratilishi, shuningdek, onalik va bolalik ijtimoiy himoya qilinishi alohida belgilab qo‘yilgan. Shu yo‘nalishda muhim chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.



Oilaga g‘amxo‘rlik qilish siyosati natijasida 2021-yildan boshlab uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 2790 onaga arzon uy-joy uchun 49,7 milliard so‘m boshlang‘ich badal puli to‘lab berildi. Bu jabhadagi ishlar ichidagi davom ettirilib, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun 2044 ta ko‘p qavatli uy qurildi, 100 mingdan ortiq kvartira foydalanishga topshirildi. “Yangi O‘zbekiston” massivlarida 126 ta uy oilalarga berildi.

Sifatli ta‘lim olish sharoitini yaxshilash maqsadida 608 ta umumta‘lim maktabi va 182 ta maktabgacha ta‘lim tashkilotida qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarildi. Jumladan, 24 ta yangi maktab qurildi.

“Tashabbusli budget” tizimi orqali 4700 ta mahalladagi qurilish va obodonlashtirish ishlari 5,5 trillion so‘m yo‘naltirildi.

Bugun mamlakatimizdagi birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida “Ayollar maslahatxonalari”, tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarda perinatal skining va onkologik kasalliklarni barvaqt aniqlashga ixtisoslashgan xonalar faoliyat yuritmoqda. 209 ta tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasida bolalarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadida bolalar bo‘limlari tashkil etildi.

46 ta tumanlararo perinatal markazining har birida 6 tadan jami 276 ta chaqaloqlar reanitatsiya shifo o‘rni mavjud.

Tibbiy yordamga muhtoj 6415 ehtiyojmand xotin-qizga jarrohlik operatsiyasini o‘tkazish uchun 86,1 milliard so‘m ajratildi.

Albatta, bunday imkoniyat onalik va bolalikni tibbiy-ijtimoiy muhofazalash, odamlarning sog‘lig‘ini asrash, turmush sharoitini yaxshilash imkonini berayotir. Zero, oila mustahkam bo‘lsa, jamiyat barqaror bo‘ladi. Oilada tinchlik-totuvlik muhiti hukm sursa, bolalarning faqat xandon kulgisi eshitiladi.

Illatlar qadriyatlarimizga
soya solmasin

Bolajon xalqimiz, bolalardan hech narsani ayamaymiz. Har bir bobo va buvi, ota-ona nabiram, farzandam mendan ham yaxshi yashasin, aslo kam bo‘lmasin, doimo ruhi baland, qaddi tik bo‘lsin, deydi. Shu maqsad yo‘lida mehnat qilish, itilishidan aslo charchamaydi.

Biroq ushbu bebaho qadriyatlarimizga soya soladigan illatlar ham yo‘q emas. Bolalarning

kattalar, ayniqsa, o‘z yaqinlarining tahdidi va zo‘ravonligiga uchrayotgani, ba‘zi oilalarda o‘g‘il-qizlarning bilim olishi, sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun to‘laqonli sharoit yaratilmasligi, erta nikoh, qarindoshlar nikohi kabi salbiy omillar ertamiz egalari tashdida jiddiy soya solmoqda. Qolaversa, ba‘zi oilalarda nizoli muhit bolalar ruhiyatida og‘ir iz qoldirmoqda. Bunday illatlarga qarshi bugun kurashilmasa, ertaga kech bo‘lishi mumkin.

Yurtimizda bolalar huquqi va manfaatini himoyasi yo‘lidagi xayrli ishlar o‘z natijasini berayotgani, mazkur jihatlar xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilayotgani quvonarli. Bu jabhadagi ishlar yildan yilga takomillashtirib borilayotgani farzandlarimizning baxtli hayoti va farovon kelajagini ta‘minlashda samara beradi, albatta.

Bundan tashqari, fuqarolarning murojaatlari va bolaga qarshi jinoyatlarga oid sud xabarnomalari asosida Bola huquqlari bo‘yicha vakil va kotibiyati xodimlari 46 ta fuqarolik, jinoyat va ma‘muriy ish yuzasidan sudlarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi.

Yurtimizda bolalar huquqi va manfaatini himoyasi yo‘lidagi xayrli ishlar o‘z natijasini berayotgani, mazkur jihatlar xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilayotgani quvonarli. Bu jabhadagi ishlar yildan yilga takomillashtirib borilayotgani farzandlarimizning baxtli hayoti va farovon kelajagini ta‘minlashda samara beradi, albatta.



QO'QONDA ZAMONAVIY UYLAR VA RENOVATSIYA

AHOLINING HAYOTDAN ROZILIGIGA XIZMAT QILYAPTIMI?

Qo'qon Farg'ona vodiysining g'arbiy qismi.

So'x daryosi quyi oqimida joylashgan qadim kentlardan. Keyingi yillardagi arxeologik izlanishlar shaharning yoshi ikki ming yildan ortiq degan qarashlarni o'rtaga chiqardi. Etimologik manbalarga ko'ra, Ho'qand go'zal, yoqimli yoki shamol ma'nosini bildiradi. Bundan tashqari, balandlikdagi shahar, hurlar shahri degan farazlar ham bor.

Hindiston va Xitoyga boriladigan katta karvon yo'lida joylashgan maskan Farg'ona vodiysidagi yirik madaniyat va ma'rifat o'chog'i, hunarmandlik markazi sifatida tanilgan. Bu yerda misgarlik, zargarlik, yog'och o'yimakorligi, qurolsozlik, kulollik, qog'ozgarlik, to'qimachilik, do'ppido'zlik, kashkachilik, temirchilik, ko'priksizlik rivoj topgan. Qo'qon gazmollari Sharqda va Rossiya mashhur bo'lgan. Ayniqsa, Qo'qon qog'ozini hunarmandlikning alohida tarmog'i sifatida nom qozongan.

Qadim shahar o'tmishi bilan bog'liq manbalarni yana ko'plab sanab o'tish mumkin. Ammo so'nggi yillarda ko'hna kentda iqtisodiyotni yuksaltirish, aholi farovonligini oshirish, hududlarni obodonlashtirish yo'lidagi loyiha va tashabbuslar har jihatdan kengaydi, ko'lamli oshdi.

Prezidentimiz 2024-yil 11-12-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga amaliy tashrifi davomida Qo'qon shahrida aholining uy-joyga talabini qondirish, ularga munosib sharoitlar yaratib berish bilan bog'liq ijtimo'i masalalar yechimiga alohida e'tibor qaratdi. Bu bejiz emas, albatta.

Qo'qon shahrida oxirgi 60 yillar davomida aholi uchun ko'zga ko'ringan biror turar joy mavzisi qurilmagan. Buning hisobiga bir hovlida 3-4 ta oila birga yashashga majbur bo'lgan.

Prezidentimiz mavjud muammolar yechimiga e'tibor qaratib, Qo'qonda ham "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishini boshlash yuzasidan bildirgan tashabbusi oilalarga quvonch, shodlik tuyg'ularini olib kirdi. Qo'qonliklar bu kunlarni orziqib kutgandi. Sababi ayni paytda yangi uy-joyga muhtoj 9500 ta oila bor. 1992-yildan 2016-yilga qadar shahar hududida barmoq bilan sanarli ko'p qavatli uy-joylar qurilgan, xolos. Endi bu boradagi ko'rsatkich salmog'i o'n chandon oshdi. O'tgan yilning o'zida shahar hududida 1600 ta xonadon foydalanishga topshirildi. Joriy yilda bu salmog' yana ikki hissa ortadi.

"Aziztepa" mahalla fuqarolar yig'indagi Movarounnahr, Xo'jand va Istiqlol ko'chalari chorrahasidagi 33,57 gektar yerda keng ko'lamli

bunyodkorlik, obodonchilik ishlari amalga oshirilaypti.

Prezidentimiz viloyatimizga tashrifi doirasida Qo'qon shahri markazida "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishi loyihasi yuzasidan kerakli tavsiyalar bergandi, — deydi shahar hokimi Ma'rufjon Usmonov.

Bu yo'nalishda dastlabki ishlarga tamal toshi qo'yilib, Aziztepa mahallasi hududida zamonaviy shaharcha qurilishi boshlandi. Bu yerda 6 335 xonadonga ega bo'lgan 83 ta ko'p qavatli uy-joy qurilyapti. Jumladan, 10 qavatli

70 ta, 16 qavatli 13 ta uy barpo etiladi. Shuningdek, biznes markazi, 1650 o'rinni umumta'lim maktabi, mehmonxona, savdo va ko'ngilochar markaz, institut binosi yotoqxonasi bilan, bitta ko'p qavatli avtoturargoh, boshqaruv-servis kompaniyasi uchun bino quriladi. Massivning o'rta qismida aholi uchun so'lim sayilgoh tashkil etiladi. Landshaft arxitektura asosida yashil xiyobonlar, manzarali daraxtlar alayalari yaratiladi, bolalar maydonchalari bo'ladi.

Ma'nan eskirgan yog'moy zavodi, issiqlik elektr stansiyasi, avtomobillarga gaz quyish shoxobchasi, omborxona, eski yakka tartibdagi uylar o'rinda qad rostlayotgan ko'p qavatli turar joy va maishiy binolar qurilishi o'tgan-ketganlar hayratiga sabab bo'lmoqda.

Kun jazirasiga qaramay, mehnat qilayotgan quruvchilar matonati tahsinga loyiq. Binolarning pishiq-puxta, mustahkam va chiroyli qilib qurilishi — davr talabi. Qurilish sohasiga oid qarorlar, yangicha me'yorlar, shuningdek, iste'molchilar istagi ham shuni taqozo qilmoqda. Bunyodkorlik ishlarida mahalliy quruvchilar bilan birga xorijlik investorlar ham ishtirok etyapti.

Bu yerda mukammal loyihalarga asoslangan 16 qavatdan iborat 96 xonadonli monolit uy-joy qurilishini boshladik, — deydi "Fayz binokor" MCHJ ish boshqaruvchisi Bekzod Olimov. — Monolit binolar zilzilabardosh, pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadi. Bu borada o'ziga xos tajribaga egamiz. Shu kunga qadar Farg'ona shahridagi "Yangi O'zbekiston" massivida 9 qavatli muhtasham



uylarni qurib bitkazdik. Marg'ilon shahridagi qurilishlarda ham ishtirok etyapmiz. Bu ishlarni o'z vaqtida sifatlil bajarish uchun barcha imkoniyat va sharoitlar bor.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, har bir binoning dastlabki tayanch ustunlari mustahkam bo'lishiga alohida e'tibor berilyapti. Poydevor himoya qatlami pishiq va puxta qurilsa, inshootlar umrboqiyiligi, zilzilabardoshligi ta'minlangan bo'ladi. Uylar energiya tejamkor loyihalar asosida qurilmoqda. Binolarning fasad

qismi bazalt bilan qoplanishi, sendvich paneldan tayyorlangan eshik-romlar xonadonlarning qishda issiq, yozda salqin bo'lishini ta'minlaydi. Bino tomiga quyosh suv istish kollektorlari, quyosh elektr panellari o'rnatiladi. Natijada foydalaniladigan issiq suvning 30-40, elektr energiyasining 25-30 foizini muqobilik asosida yetkazib berish imkoniyati tug'iladi.

Yangi uy-joylar qurilishida aholi manfaati va imkoniyatlari hisob-kitob qilingan, — deydi "Saodat" mahalla fuqarolar yig'ini raisi

“

Prezidentimiz mavjud muammolar yechimiga e'tibor qaratib, Qo'qonda ham "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishini boshlash yuzasidan bildirgan tashabbusi oilalarga quvonch, shodlik tuyg'ularini olib kirdi. Qo'qonliklar bu kunlarni orziqib kutgandi. Sababi ayni paytda yangi uy-joyga muhtoj 9500 ta oila bor. 1992-yildan 2016-yilga qadar shahar hududida barmoq bilan sanarli ko'p qavatli uy-joylar qurilgan, xolos. Endi bu boradagi ko'rsatkich salmog'i o'n chandon oshdi. O'tgan yilning o'zida shahar hududida 1600 ta xonadon foydalanishga topshirildi. Joriy yilda bu salmog' yana ikki hissa ortadi.



inshootlari qurilyapti. Shuningdek, keng va ravon yo'llar, tabiiy gaz, toza ichimlik suv, elektr ta'minoti bilan bog'liq zaruriy infratuzilma tarmoqlari barpo etilmoqda.

Po'stindo'z ko'chasidagi ma'nan eskirgan ikki qavatli uylar o'rinda 12 qavatli 124 xonadonli 3 ta zamonaviy uy-joy binosi qurilishi so'nggi bosqichga kirdi.

Yangi uylarni eskisi bilan qiyoslab bo'lmaydi, — deydi Mavjuda Asqarova. — Bu yerda ko'chib kelib, qo'nim topganimizga sakson yildan oshdi. Ota-onamdan meros katalakdek joyda uch farzandim bilan yashab kelganimiz. Past, tor xonalar, umumiy foydalanuvdagi suv va boshqa kommunal xizmatlar ko'plab noqulayliklarga sabab bo'lgan. Endi bu qiyinchiliklar ortda qoldi. Bizga 50 kvadrat metr o'ranga 62 kvadrat metr uy-joy berilyapti. Inson manfaati, qadr-qimmat yo'lidagi hayotbaxsh islohotlar biz kabi ko'plab oddiy oilalar hayotiga quvonch, shodlik olib kelmoqda.

Bugungi kunda renovatsiya dasturi asosida Movarounnahr, Shohruxobod, Alisher Navoiy, Furqat, Turkiston ko'chalari qatnashgan uy-joylar qurilishini boshlagan. Bu yerda ikki qavatli uylarda shu kunga qadar bor-yo'g'i 24 ta oila yashab kelgan, — deydi "Salom siti" MCHJ ish boshqaruvchisi Shohrux Shodmonov. — Yangi loyihaga ko'ra, ular o'rinda 124 ta xonadonli uy quraymiz. Renovatsiya dasturi asosida uy-joylari buzilgan mulkdorlarga shu yerning o'zidan kompensatsiya to'lovlarisiz xonadonlar ajratilgan. Asosiy maqsad — mulkdorlar huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularga munosib shart-sharoitlar yaratib berish.

Bunyodkorlik, yaratuvchanlik xalqimizga xos fazilatlaridan. "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi har bir hududning o'ziga xos timsolini yaratmoqda. Sharqona latofat va nafislik, zamonaviy me'morlik andozalari bilan uyg'un tarzda yuksalib borayotgan yangi binolar ko'hna maskanga ulug'vorlik kasb etmoqda. Bu imoratlar xalqimiz bunyodkorligining yorqin timsoli sifatida ko'ngillarga g'urur, iftixor bag'ishlaydi, albatta.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar

May oyining boshida Osiyo taraqqiyot banki rahbari Masato Kanda Italiyadagi yirik moliyaviy anjumanlardan birida O'zbekistonda xususiy investitsiyalar hisobiga energetika sohasini muvaffaqiyatli transformatsiya qilayotgan namunali davlatlardan biri sifatida e'tirof etdi. 23-mayda esa S&P Global Ratings xalqaro agentligi O'zbekistonning suveren kredit reytingi prognozini "barqaror" darajadan "ijobiy"ga yaxshiladi.

O'zbekistonning yuksak xalqaro munbarlarda bot-bot e'tirof etilishi hamda turli nufuzli reytinglardagi mavqeyi oshayotgani taraqqiyotning to'g'ri yo'lidan borayotganimizning yaqqol isbotidir. Ayniqsa, davlat iqtisodiyotini ko'tarishda hayotga tatbiq etilayotgan yangi loyihalar kelajakka ishonchni yanada mustahkamlamoqda.

Masato Kandaning e'tirofi nomiga aytilayotgan maqtovgina emas, yirik tashkilot rahbarining bugun O'zbekistonda bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlarni bevosita kuzatib, boshqa davlatlar bilan solishtirgan holda chiqargan xulosasidir. U taxminan 40 yillik tajribaga ega iqtisodchi ekspert. Yaponiya bosh vaziri hamda davlatning Moliya vazirligida yuqori lavozimlarda ishlagan. Oksford universitetini iqtisodiyot bo'yicha tamomlagan. Mazkur ma'lumotlar ham Masato Kanda shunchaki gapirmasligini bildiradi.

E'TIROFLAR MAQTOV EMAS, BALKI FAKT

XALQARO REYTING KO'RSATKICHLARI CHUQUR TAHLILLAR HOSILASI

O'zbekistonning suveren kredit reytingi prognozida "barqaror" darajadan "ijobiy"ga ko'tarilgan undan ham katta voqea. Sababi S&P Global Ratings agentligi reytingni baholashda mamlakatning bugungi iqtisodiy holati bilan birga kelgusi imkoniyatlarini tahlil qilgan holda xulosa beradi.

Bugun har qanday xalqaro tashkilot reytingi, ayniqsa, iqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z o'rini yaxshilash hech bir davlat uchun oson bo'lmay qoldi. Chunki dunyo miqyosidagi iqtisodiy beqarorlik barcha mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, reytinglar talablari zamonga moslashgan holda yanada kengayib bormoqda. Xususan, S&P Global Ratings agentligi davlatlarning suveren kredit yulogatini agentlikning 2017-yil 18-dekabrda "Suveren reyting metodologiyasi"ga asoslanib baholaydi. Mezonlarga ko'ra, mamlakatning milliy va xorijiy valyutada kredit ajratishi, xalqaro pul aylanmasi, YAIM, tashqi qarz bo'yicha iqtisodiy barqarorligi, soliq siyosati,

korporativ boshqaruvi, uzoq yillik strategiyasi va dasturlari istiqbolli inobatga olinadi.

S&P Global Ratings agentligi hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda 2017-yildan boshlab iqtisodiyotni liberalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakat iqtisodiyotining barqaror ko'rsatkichlarga ega bo'lib kelayotgani hamda boshqaruv sifati va makroiqtisodiy siyosatni takomillashtirishga qaratilgan davomli sa'y-harakatlar bunday qarorga kelishdagi asosiy omillardir. Shuningdek, tarixiy yangilanishlar konvertatsiya, pul-kredit siyosatidagi islohotlar, dunyodagi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib tezkor qabul qilingan qarorlar hamda ko'p yilga mo'ljallangan oqilona loyihalar bunga asos bo'lib xizmat qilgan.

Baholashda eng muhim iqtisodiy ko'rsatkich davlatning yalpi ichki mahsuloti barqaror o'sib borishidir. O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 2019-yili 67 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yili 115 milliard dollarga yetdi. Tahlillarga ko'ra, 2028-yilga borib, 173 milliard

dollarga yetishi kutilyapti. Shuningdek, YIM o'rtaacha o'sish ko'rsatkichi 2025-2028-yillarda yiliga o'rtaacha 5,6 foiz bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Agentlik hisobotida O'zbekistonda "yashil" energetika loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani ham e'tirof etilgan. Ayni paytda mamlakatimizda iste'mol qilinadigan energiyaning 20 foizi muqobil energetika ulushiga to'g'ri kelayotgani, 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich 40 foizga ko'tarilishi qayd etilgan. Bu borada Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasi bilan hamkorlikda 2030-yilgacha 7,5 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish ko'zlangani maqsadga ishonch bilan erishishni kafolatlaydi.

Shuningdek, bugun oltin narxining rekord darajada ko'tarilishi bu borada katta xaziraga ega O'zbekiston uchun yanada rivojlanish imkonini bermog'da. 2030-yilgacha mamlakatimiz xalqaro hamkorlar bilan birga mis, oltin, kumush, uran ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirishni mo'ljallayapti.

S&P Global
Ratings



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Bu davlatning eksport salohiyatini ko'tarish, iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qiladi. Fiskal siyosatdagi oqilona islohotlar O'zbekistonda shaffof muhit shakllanishi, yashirin iqtisodiyotning yil sayin kamayib, soliq tushumi ortib borishini ta'minlaydi. Ayniqsa, soliq tizimiga raqamli texnologiyalar faol tatbiq etilayotgani tizim ishini karrasiga yaxshilayapti.

O'zbekiston iqtisodiyoti yuksalishida xorijiy investitsiyaning o'rni katta. Ayni paytda YAIMning 33 foizini tashkil etayotgan sarmoyalar iqtisodiyotning turli sohalari taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Bunda, albatta, davlatimiz rahbarining xorijiy investitsiyalarni jalb etish, turli davlatlar bilan ikki tomonlama manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatishda jonbozlik ko'rsatayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Keltirilgan ma'lumotlar keyingi yillarda

Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yangi O‘zbekistonda tibbiy ta’lim tizimi nafaqat soha rivojining asosiy poydevori, balki raqobatbardosh, bilimli va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdagi strategik yo‘nalish ham hisoblanadi. Sohadagi bunday o‘zgarishlar yurtimizdagi tibbiyot ta’limi va amaliyotini zamonaviy bosqichga olib chiqish maqsadini ko‘zlagan.

Andijon davlat tibbiyot institutida ham ta’limni rivojlantirish tibbiyot sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, amaliyot va nazariyani uyg‘unlashtirish hamda tibbiyot



fanining ilg‘or yutuqlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari 2021-yili viloyatga tashrifi chog‘ida Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida bo‘lib, u yerdagi ahvolni ko‘zdan kechirar ekan, klinikani to‘liq rekonstruksiya qilib, uning negizida vodiy aholisi uchun kardiologiya, neyroxirurgiya, ko‘z kasalliklari va urologiya bo‘yicha murakkab operatsiyalar o‘tkazadigan tibbiyot markazi tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar bergan edi.

“Inson qadrini ulug‘lash, uning hayotiy manfaatlarini ta’minlash uchun, eng avvalo, odamlarning salomatligi va yashash sharoitini yaxshilashimiz kerak. Institut va klinika bu borada katta makazlardan biri bo‘la oladi. Buning uchun zarur sharoitlar yaratamiz. Faqat ta’lim metodikasini yangilash, dunyo tibbiyotida qo‘llanayotgan ilg‘or uslublarni tatbiq etish kerak”, deya ta’kidlagandi davlatimiz rahbari.

Xo‘sh, o‘tgan 4 yil davomida mazkur tibbiyot ta’lim dargohida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi? Berilgan topshiriq va vazifalar qay darajada bajarildi?

Yangi O‘zbekiston ruhi

— Aholi sog‘lig‘ini ishonchli muhofaza qilish, tibbiyot sohasidagi islohotlar samarasini oshirish davlatimizning doimiy e’tibor markazida bo‘lib kelmog‘da. Buni har bir yurtodoshimiz kundalik turmushida sezib, ko‘rib yashayapti. Prezidentimiz 2021-yil 29-sentabr kuni Andijon viloyatiga tashrifi chog‘ida institutimiz klinikasi bilan tanishgani muhim voqea bo‘ldi va institutimiz faoliyatida tub burilish yasadi, — deydi Andijon davlat tibbiyot instituti rektori, professor Madamin Madazimov. — 2021-yil 25-noyabrda Vazirlar Mahkamasining “Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham qabul qilindi va

ish jarayonlari boshlanib ketdi. Klinika hududidagi 2 gektar maydonda institutning 2000 o‘ringa mo‘ljallangan yangi o‘quv binosi qad rostladi. Bino 7 qavattan iborat bo‘lib, har bir qavatda 28 ta xona mavjud. O‘quv xonalari interaktiv doskalar, zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta’minlangan.

O‘quv binosida 12 ta ma’ruza zali mavjud. Binoning ikkinchi qavatida jahon standartlariga mos, katta imkoniyatlarga ega simulyatsiya markazi joylashgan. Uchinchi qavat stomatologiya yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan zamonaviy uskuna va texnologiyalar bilan jihozlangan. Binoda asosan klinik kafedralar o‘rin olgan. Klinika va mazkur o‘quv binosi o‘rtasida teletibbiyot tizimi xizmati joriy qilingan. Jarrohlik bo‘limlarida amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘quv xonalariga uzatib ko‘rsatiladi.

Talabalar ushbu jarayonda shifokorga o‘z savollarini berish va bir vaqtning o‘zida javob olish imkoniga ega. Institutning markaziy ilmiy tekshirish laboratoriyasi qurib bitkazilgani ham talabalarga qulay imkoniyatlar yaratdi. 4 qavattan iborat bo‘lgan bino 400 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, 30 ta o‘quv, 21 ta laboratoriya xonasiga ega. Shuningdek, yana bir qancha yordamchi bino va inshootlarda qurilish yakunlanish arafasida.

Ta’lim dargohi so‘nggi yillarda qator yutuqlarga erishdi. O‘tgan yili UI Green Metric World University Ranking (Yashil universitetlarning global reytingi) dunyo



universitetlarining xalqaro reytingida sertifikat bilan taqdirlandi.

Institutning davolash ishi (o‘zbek, rus va ingliz tilida), stomatologiya fakultetlari ta’lim dasturlari Qozog‘istonning ECAQA markazi tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazildi. Albatta, bu jarayonlarning barchasi mamlakatimizda kechayotgan istiqbolli islohotlar va institut professor-o‘qituvchilarining hamjihatlikdagi samarali mehnati va fidokorligi natijasidir.

Zamonaviylik faqat texnologik taraqqiyot emas

Tibbiyotdagi zamonaviylik faqat texnologik taraqqiyot emas, balki ta’lim, diagnostika, davolash va boshqaruv sohalaridagi keng



qamrovli yangilanishlarni o‘z ichiga olgan bosqichdir. Andijon davlat tibbiyot instituti ham yangi bosqich va yangilanishlar qamrovida dunyoning tibbiyot sohasidagi 60 dan ziyod universitet va instituti bilan xalqaro hamkorlik qilmoqda.

Hozir 105 ta xalqaro shartnoma imzolangani



kunda 16 talaba ushbu yo‘nalishda o‘qimoqda. Institutning moddiy-texnik bazasida yaratilgan sharoitlar, qulay muhit, nazariya va amaliyotning uyg‘unligi malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etayotir.

Tibbiyotda Andijon brendi yaratiladi

Institut rektori Madamin Madazimov shunday deydi:

— Joriy yilning 15-16-aprel kunlari davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga tashrifi chog‘ida ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi dolzarb masalalarga ham alohida to‘xtalib o‘tdi. Prezidentimizning “Bu zaminda yangi O‘zbekiston ruhi har bir mahalla, har bir xonadonga kirib bordi. Bu — islohotlarimizning eng katta natijasi”, degan so‘zlari ko‘nglimizni quvoshtirib yoritdi. Davlatimiz rahbari viloyatning har jabhasidagi islohotlar ijrosi va



odamlarning kundalik hayotiga kirib borayotgan ijobiy o‘zgarishlarni e’tirof etish barobarida tibbiyotda Andijon brendini yaratish bo‘yicha barcha imkoniyatlar borligini ham ta’kidladi. O‘tgan yili 650 o‘rinli klinika Andijon davlat tibbiyot instituti balansiga o‘tkazilib, uni ta’minlash va jihozlashga 180 milliard so‘m berildi.

Klinikaning qurilish-ta’minlash ishlariga institut tomonidan 80 milliard so‘m ajratildi va ushbu tashabbus Prezidentimiz tomonidan

ma’qullandi. Bu yerdagi qurilish-ta’minlash ishlarini yakunlashni jadallashtirish va jihozlash uchun 100 milliard so‘m ssuda ajratilishi belgilandi.

Hozir bu klinika 11 ming talabaga bir vaqtning o‘zida ham o‘qish, ham amaliyot o‘tash imkonini beradi. Oliy ta’lim muassasamizda simulyatsion markazda tibbiyot xodimlari malakasini ikki bosqichda baholash tizimini yo‘lga qo‘yish, klinika yoniga travmatologiya, pediatriya va jarrohlik, ginekologiya bo‘limini qurib, klasterga aylantirish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. Simulyatsion markazda sinovdan o‘tgan tibbiy xodimlarga qo‘shimcha 100 foiz ustama berilishi belgilandi.

Shuningdek, Prezidentimiz bugungi kunda namanganlik 2 ming yosh Andijonga qatnab o‘qiyotganini hisobga olib, Namangan davlat universiteti tibbiyot fakulteti Andijon tibbiyot instituti filialiga aylanishi, bu filial keyinchalik mustaqil oliyohq darajasiga olib chiqilishi hamda Andijon tibbiyot institutiga universitet maqomi berilishini aytdi. Buni institutimizning fidoyi, jonkuyar jamoasiga bildirilgan yuksak ishonch deb bilamiz va bu ishonchni oqlash uchun yanada kuch-quvvat hamda shijoat bilan ishlaymiz. Institutda xorijdan kelib tahsil olayotgan talabalar soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda ularning soni 1000 nafardan ziyod.

Shuni inobatga olgan holda, davlatimiz rahbari Qirg‘iziston, Tojikiston, Xitoy va Hindistonan kelib o‘qimoqchi bo‘lgan talabalar hisobiga viloyatda tibbiy ta’lim eksporti yiliga 20 million dollardan oshirish mumkinligini ta’kidladi. Mutasaddilarga xorijdan kelib o‘qiyotgan talabalar uchun “talaba vizasi” joriy qilish bo‘yicha taklif kiritish topshirildi. Bu institutimizga xorijdan kelib o‘qish istagini bildirgan yoshlarga qulaylik yaratadi.

Institut klinikasida faoliyat yurituvchi 150 nafar yosh mutaxassis dunyoning eng rivojlangan mamlakatlariga borib malakasini oshirib qaytdi. Ular klinikada mustaqil ravishda yuqori texnologik davolash muolajalarini amalga oshirish tajribasiga ega. Bu tibbiy turizmni rivojlantirishga turki beradi. Kelgusida tibbiy turizmdan 1 million 200 ming dollarlik mablag‘ tushirish rejamiz bor.

Bundan tashqari, klinikada barcha turdagi operatsiyalar bajariladi. Qo‘shimcha 4 ta bo‘lim qurilib, joylar soni 850 taga yetkaziladi. Amalg oshirilayotgan ishlar bemorlarga qulay sharoitlarda sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish, talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot

bilan teng olib borishiga keng imkon bergani holda dual ta’limning yorqin andozasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgacha 20 bemorda mutaxassislarimiz tomonidan buyrak transplantatsiyasi amaliyoti o‘tkazildi. Klinikamiz foydalanishga topshirilgandan so‘ng mutaxassislarimiz Respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik markazidagi hamkasblari bilan hamkorlikda jigar transplantatsiyasi operatsiyasini o‘tkazadi. AQSHning dunyo reytingida top-100 talikda 3-o‘rinni egallab turgan Klivlend klinikasi mutaxassislari bir yil davomida klinikamizda bo‘lib, yurak-qon tomir operatsiyalarini yo‘lga qo‘yib, jarayonlarga institut mutaxassislarini tayyorlashda mahorat darslarini o‘tkazishi ham rejalashtirilgan.

Viloyatning 160 ta birlamchi tizim davolash muassasasiga amaliy yordam berish maqsadida 132 nafar professor-o‘qituvchi mas’ul ul etildi. Onkologiya xizmatini takomillashtirish maqsadida 17 ta shahar va tumanga institutimizning onkolog va gematolog mutaxassislari birlashtirilib, 36 soatlik o‘quv dasturi ishlab chiqildi. 28 nafar onkolog, 32 nafar gematologning malakasi oshirildi va hududlarda bemorlarga amaliy-uslubiy yordam ko‘rsatildi.

Jarrohlik yo‘nalishi bo‘yicha yetakchi professor-o‘qituvchilarimiz aholiga qulaylik yaratish maqsadida 84 ta ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik jarrohlik amaliyotini tumanlarda o‘tkazib berdi. Ushbu jarayonlarda talabalarimiz ham faol ishtirok etmoqda. Xalqimizga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, mas’uliyatli shifokorlarni tarbiyalash bizning bosh maqsadimiz va muhim vazifamizdir.

Yangilanishlar, o‘zgarishlar va yutuqlar

Zamonaviy tibbiyot ta’limi nafaqat bilimli va malakali kadrlar yetishtirishni, balki innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etishni ham o‘z ichiga oladi. Andijon davlat tibbiyot institutidagi yangilanishlar yangi O‘zbekistonda kechayotgan shiddatli, istiqbolli o‘zgarishlarning kichik bir ko‘rinishidir.

Institutda “Kelajakka qadam” loyihasi doirasida joriy o‘quv yilidagi 2297 bitiruvchining 800 nafardan ziyodi ish bilan to‘liq ta’minlangan.

Ilmiy faoliyat sohasida ham Andijon tibbiyot institutining yutuqlari talaygina. Institutning travmatologiya, ortopediya va neyroxorhlik kafedrası mudiri Qobil Xudoyberdiyevning II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofotlangani va “Yilning eng yaxshi shifokori” respublika tanlovida “Yilning eng yaxshi neyroxirurgi” nominatsiyasi bo‘yicha birinchi o‘rinni egallaganı ushbu maskandagi izchil islohotlarning natijasidir. “Koreya xalqaro xitirochi ayollar ko‘rgazmasi — “KIWE” — 2024”da Koreya xitirochi ayollari uyushmasi tomonidan institutning gospatl pediatriya kafedrası dotsenti Hurmatoy Xonkeldiyeva oltin medal bilan taqdirlandi.

Tibbiy ta’lim muassasasida faoliyat yuritayotgan 950 o‘qituvchining 60 nafari fan doktori, professor, 256 nafari esa fan nomzodi, dotsentdir. Bilimli va tajribali ustozlar ta’limini olgan talabalar ham ular ortidan ergashib, salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Birgina o‘tgan yilning o‘zida institutning 6 talabasi Prezident va boshqa davlat stipendiylariga sazovor bo‘ldi. “Samarqand — 2020” V xalqaro tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari olimpiadasiida ishtirok etgan 20 dan ziyod talabaniing yuqori o‘rinlar va turli nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritgani alohida e’tiborga molik voqeadir.

Ha, yuksak saviyadagi tibbiy kadrlar faqatgina kasalliklarni davolovchi shifokorlar emas, balki jamiyatning sog‘lom turmush tarzi va profilaktika madaniyatini shakllantiruvchi yetakchilardir. Shu bois, tibbiyot ta’limidagi islohotlar va yutuqlar mamlakat sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Gulichehra DURDIYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mulohaza

Joriy yilda mamlakatimizda 450 mingdan ziyod bitiruvchi maktabni tamomlamoqda. Bu, shubhasiz, ular uchun yangi orzular, murakkab tanlovlar va mustaqil qarorlar pallasidir. Ayniqsa, kelajagini tibbiyot bilan bog‘lashga ahd qilgan yoshlar oldida yanada katta vazifalar turibdi – ular inson hayoti va salomatligini asrashdek sharaflı, ammo o‘ta mas’uliyatli yo‘lnı tanlagan.

Zamon shiddat bilan yangilanmoqda. Tibbiyot ham bundan mustasno emas. Bugungi shifokoridan nafaqat an’anaviy bilimlar, balki chuqur ilmiy tafakkur, tahliiliy yondashuv, raqamli savodxonlik va eng so‘nggi texnologiyalardan unumli foydalanish kompetensiyalari talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazaridan, tibbiy ta’lim jarayonida biofizika va axborot texnologiyalari kabi fundamental fanlarnı samarali o‘qitish va amaliyot bilan chambarchas bog‘lash davrning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanı.

Biofizika tirik organizmlarda kechadigan murakkab jarayonlarga fizik qonuniyatlar orqali yondashuvdir. Bu fan organizmning funksional



Murotali BOZORBOYEV,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
kafedra mudiri,
fizika-matematika fanlari nomzodi,
dotsent

holatini aniqlik bilan tushunish, kasalliklarga tashxis qo‘yishning zamonaviy usullarini yaratish, samarali fizioterapiya muolajalarini ishlab chiqish va tibbiy asbob-uskunalaridan to‘g‘ri foydalanish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Afsuski, kuzatuvlar aksariyat talabalar biofizikani quruq nazariy tushunchalar yig‘indisi sifatida qabul qilishini

ko‘rsatadi. Vaholanki, kundalik amaliyotda keng qo‘llaniladigan elektrokardiografiya (EKG), ultratovush tekshiruvi (UTT), rentgen diagnostikasi, magnit rezonansli tomografiya (MRT) kabi ilg‘or diagnostika texnologiyalari aynan biofizik tamoyillarga asoslanadi. Shu bois, bu fanni qiziqarli va hayotiy misollar, zamonaviy simulyatsion dasturlar, videonimatsiyalar va eng muhimi, real klinik holatlar tahliili orqali o‘qitish yosh mutaxassislar dunyoqarashini kengaytirish va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Universitetimizda aynan shu kabi innovatsion yondashuvlar joriy etilayotgani quvonarli. Talabalarda fanga qiziqish ortib, nazariy bilimlar amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak shifokorlarning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiyalar asrida tibbiyot sohasini axborot texnologiyalarisat zavvur etish mushkul. Elektron tibbiy yozuvlar (EHR), kasalliklarni sun‘iy intellektga asoslangan holda barvaqt aniqlash va tashxis qo‘yish tizimlari, tibbiy statistika ma’lumotlarini tahliil qilish, klinik qarorlarni qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi intellektual platformalar — bularning barchasi zamonaviy shifokor



faoliyatining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Biroq bu sohada ham o‘ziga yarasha muammo va qiyinchiliklar yo‘q emas. Jumladan, talabalarining dastlabki IT savodxonligi darajasi turlichaligi, dasturlash asoslari va algoritmash ko‘nikmalari yetarli emasligi, ba’zan esa IT

fanlari bevosita tibbiy kontekstdan ajratilgan holda o‘qitilishi kabi holatlar uchrab turadi. Mazkur muammolarni samarali bartaraf etish maqsadida tibbiy ta’lim dasturlariga elektron sog‘liqni saqlash tizimlari, klinik ma’lumotlar tahliili va tibbiyotda sun‘iy intellekt bo‘yicha

maxsus o‘quv modullarini integratsiyalash, talabalarning real tibbiy axborot platformalarida amaliy mashg‘ulotlar o‘tashini ta’minlash orqali ularning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash, shuningdek, o‘quv jarayoniga nafaqat tibbiyot va pedagogika sohaları mutaxassislarini, balki yuqori malakali IT ekspertlarini ham jalb qilgan holda fanlararo o‘qituvchilar jamoasini shakllantirish kabi innovatsion yondashuvlarni amaliyotga keng joriy qilish maqsadga muvofiq.

Bugun minglab bitiruvchilar hayotining yangi, yorqin sahifasini ochayotgan kunda biz, ustozlar ularga nafaqat puxta bilim, balki keng dunyoqarash, zamonaviy texnologiyalarni egallash ko‘nikmalarini berishga ham mas’ulmiz. Biofizika va axborot texnologiyalarini yuzaki yoki an’anaviy usullarda o‘rgatish etangani kunning murakkab talablariga javob bera olmaydigan, raqobatbardoshlik xususiyati yo‘q shifokorlarni tayyorlash bilan barobardir. Shu bois, bu fanlarga tibbiy ta’limning shunchaki qo‘shimcha elementi emas, balki uning tayanch poydevori sifatida qaralishi va zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borilishi ayni muddao. Bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarimiz bugungi bitiruvchi yoshlar kelajakda chinakam ma’noda zamonaviy, yuksak texnologik savodxonlikka ega, o‘z kasbining ustasi, qolaversa, insonparvar va vataniga sidiqqididan xizmat qiluvchi shifokorlar bo‘lib yetishishi yo‘lida qo‘yilgan muhim qadam bo‘ladi, desak adashmaymiz.



Albatta o'qing!

To'nni kim teskari kiyadi?


(“So‘z latofati” kitobidan)



Tilimizda shunday iboralar borki, ularning asl kelib chiqishi ma'lum emas, mazmun boshqa, so'zlar boshqa. “Ishing oshib-toshib yotganda ermakka balo bormi?” deyiladi. Yoki birov xato ish qilsa, qovun tushirdi, deydlilar. Bu jumalalarda balo ham, qovun ham gap ma'nosiga aloqasiz. Og'ayni chalish deymiz. Og'ayni ma'lum, lekin chalish nima? Og'aynilar bir-birini oyog'idan chalgani uchunmi? Yoki bir-birining aybini nog'ora qilib chalgani uchunmi? Tan berdi, yo tan oldi, degan iboralarimiz bor. Biri qoyil qolish, ikkinchisi iqror bo'lishni bildiradi. Bu ma'nolarga tan so'zining nima aloqasi bor? Dabdala so'zining dalaga, dabdurustdan so'zining durustga bog'liq joyi bormi? Shunday so'z birikmalarini tilshunos olimlarimiz majhul ibora deydlilar. Jahli chiqqan odamga nisbatan, to'nini teskari kiydi, deyish ham majhul sanaladi. Darhaqiqat, jahlning to'nga nima aloqasi bor?



TO'NINI TESKARI KIYDI IBORASI HAM MA'NOSIZ EMAS. TO'NINI KIM TESKARI KIYADI? BU SAVOLGA BOSHQA BIR MAQOL JAVOB BERADI: KAMBAG'ALNI URMA, SO'KMA, TO'NINI YIRT. HOZIRGI YOSHLAR BU MAQOLNI ANGLAMASLAR. O'N TO'Q'QIZINCHI ASRDA TUG'ILGAN SHOIR HABIBIYNI KO'RISH, HAMSUHBAT BO'LISH MENGA NASIB QILGAN. SHOIR YOSHLIGINI ESLAB, BO'ZDAN TIKILGAN ISHTON TIZZADAN YIRTILISHI, TO'ZIGAN JOYGA SOLINGAN YAMOQ HAM TO'ZIB, YAMOQQA YAMOQ SOLINGANINI AYITIB O'TIRARDI.



tug'ilgan shoir Habibiyni ko'rish, hamsuhbat bo'lish menga nasib qilgan. Shoir yoshligini eslab, bo'zdan tikilgan ishton tizzadan yirtilishi, to'zigan joyga solingan yamoq ham to'zib, yamoqqa yamoq solinganini aytib o'tirardi.

To'nni kim teskari kiygan? G'azab otiga minib, mushtlashaman degan kambag'al teskari kiygan. Qon tegsa, loy tegsa astarga tegsin, yirtilsa, astar yirtilsin, yamoq tushsa astarga tushsin deb, to'nni teskari kiygan. Kambag'alning to'ni ikki bo'limgan. Yirtilsa, boshqasini kiyolmagan.

Endilikda to'n kiyish urfdan qoldi. Kiygan yelim kamzulimiz yuz yilda ham yirtilmaydi. Mushtlashish ham udum emas. Qasd olish uchun mushtning keragi bo'lmay qoldi. Oyogdan chalishning ming bir xil usuli topilgan. To'nni teskari kiyishga hech bir zarurat yo'q. Lekin qanotli ibora unut bo'limgan. Bu ham So'zning sehri. So'z zamirida tarix yashiriniy yotganiga timsol.

Bir maqolning qulfini ochishga boshqa maqol kalit bo'ldi. Kim bilsin, balki qovun tushirdi iborasiga ham boshqa ibora, qovuzi qo'ltig'idan tushdi, degan majoz ochqich bo'lar. Buni aniqlash endi sizlar — So'z ummonining g'avvoslariga havola. Izlang, bahs qiling, talashib tortishing. Lekin zinhor to'nni teskari kiyamiz!

qilmagan, suyanadigan ham hech narsa yo'q. Olim ishonchli tayanch bo'lmasa, joyidan qo'zg'almaydi. Biz doktor ham, professor ham emasmiz. Xato qilsak, ayb emas. Mana, uzi ham topildi. Endi gapni bemalol davom ettirishimiz mumkin.

To'nni teskari kiydi iborasi ham ma'nosiz emas. To'nni kim teskari kiyadi? Bu savolga boshqa bir maqol javob beradi: Kambag'alni urma, so'kma, to'nini yirt. Hozirgi yoshlar bu maqolni anglamaslar. O'n to'qqizinchii asrda

Hazrat Alisher Navoiy shohbaytlariga yana va yana qaytish ehtiyoji ko'nglimizda har lahzada paydo bo'ladi.

Qaroko'zum keli mardumlig' emdi fan qilg'il, Ko'zim qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Inson va qorachiq

Avvalgi suhbatlarda bizni sharh qilib, unda jam bo'lgan teran mazmun, go'zallik, san'atlarga birgalikda hayrat qilganmiz. Hozir endi gapimiz faqat birgina mardum so'zi to'g'risida. Bu forschaga atamaning inson va ko'z qorachig'i degan ma'nolari to'g'risida bo'ladi. Bir-biridan juda uzoq bo'lgan bu ikki tushuncha nega shu bir so'zda ifoda etilgan? Bu savolga javob izlab boshqa tillarga murojaat qilamiz. Arablar ko'z qorachig'ini insonul ayn der ekanlar. Ya'ni ko'zning insoni. Arab tilida ham qorachiq va inson bir so'z ekan. “Mahbub ul-qulub”da shunday satrlar bor:

Kelib aynu insonu insoni ayn, Jahon vorisi Shoh Sulton Husayn.

Hazrat nazarida odil shoh insonlarning ko'zi va ko'zlarining qorachig'i.

Mardum so'zida inson ma'nosi ham, xalq ma'nosi ham bor. Inglizlar xalqni people (pipi) deydlilar. Ko'zning qorachig'i esa pupil bo'ladi. Ajabo! Insonlar va ko'z gavhari deyarli bir xil aytiladi. Rus tilida qorachiq qanday ifoda qilinadi? Vladimir Dal lug'atini ochib qaraymiz. Zrachok, zenitsa qatorida chelovechek, malchik atamallari ham bor ekan. Arab, fors, ingliz, rus tillaridagi bunday o'xshashlik kishini hayratga soladi, bu holning sababini izlashga majbur qiladi, albatta.

O'ylasam, odamzodning ko'ziga yaqindan tikilib qaralsa, inson aksi ko'rinar ekan. Bu

ayonki, tikilib qaragan insonning o'z aksi. Lekin tasvir juda kichik va tanib bo'lmas darajada boshqacha namoyon bo'ladiki, biz qorachiqda o'zimizni emas, notanish bir odamni, ya'ni umumiyat-la insonni ko'ramiz. Ko'z qorachig'i shu boisdan inson, mardum, pupil, chelovechek atalgan, desak xato bo'lmas.

Pupil so'zining yana bir ma'nosi talaba, o'quvchi bola. Ruscha qorachiq ma'nosidagi malchik so'zini eslatadi. Biz o'zimiz ham farzandimizni qarog'im deymiz. Bolani ko'z qorachig'iga tenglash barcha turkiy tillarga xos. Darhaqiqat, inson ko'zdek aziz, aziz insonlar yashaydigan yurt ko'zdek ardoqli. Do'lanadekkina yer kurtisi ham ko'z shaklida. Vatanimiz unda bamosoli gavhar. Shu bois yurti ko'z qorachig'idek asraymiz, degan so'z bizga yurtning o'zidek qadrlidir.

Qaroko'zum, keli mardumlig' emdi fan qilg'il. Hayron bo'lmang, bayt so'zlarini buzib yozmadim. Biz qaro ko'zim deb ikki so'z tarzida yozishga o'rganib qolganmiz. Vaholanki, qaroko'z yagona tushunchani anglatuvchi yaxlit so'zdir. Ajabo, sarvinzo, dilrabo, gulchehra, gulbadan so'zlarini qo'shib yozamiz, hatto, ism bo'lgani uchun Gulbadanbegim, deya uch so'zni yaxlit bitamiz-u, qaroko'zga kelganda ikkiga bo'lib qo'yamiz.

Atoqli adib Pirimqul Qodirovning dastlabki romanlaridan biri “Qora ko'zlar”

deb atalardi. Esimda bor: yozuvchi “bu nom qo'shib yozilishi kerak, men ko'zlar haqida emas, insonlar haqida yozganman”, deya noshirlar bilan ko'p talashgan, lekin so'zini o'tkaza olmagan edi. “Imlo qoidasi shunday”, deb turib olishgan. Balki, gap imlo qoidasida ham emas, muharrir qaroko'z atamasining tag ma'nosini tushunib qolgandir. Gap millat haqida ketayotganini anglab o'zini ehtiyoj qilgandir. Darhaqiqat, qaroko'zlar, deya muallif o'zbeklarni ko'zda tutgan edi. Lekin kitob “Qora ko'zlar” nomi bilan chiqdi va chin ma'no pinhon qoldi.

Navoiyning shuhrat topgan shunday bayti bor:

Menga shohlar xil'atikim, el tomosha qilg'ali, O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.

Qaroko'zim, deya hazrat o'zbeklarni atamagan, albatta. U zamonda millatni ko'kko'z, mallasochlardan ayirib nomlashga ehtiyoj yo'q edi. Ovrupoliklar hali Xurosonga kelmagan edilar. Lekin men baribir qaroko'zim deganda o'zbekimni o'ylayman. Bu g'azal o'zining teranligi bilan, unga bog'langan kuyning go'zalligi va nafisligi bilan o'zbekning timsoliga aylangandek tuyuladi.

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston xalq shoiri

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy himoya

“Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” hikmati bejiz aytilmagan. Uning zamirida har bir o'g'il-qizning yurish-turishi, ta'lim-tarbiyasiga befarq bo'lmaslik, mehr-e'tibor ko'rsatish kabi odob-axloq tamoyillari mujassam. Bu yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish naqadar muhim ekanidan dalolat. Loqaydlik, yoshlarni o'z holiga tashlab qo'yish ko'plab ko'ngilsizliklarga olib kelishi tabiiy.

O'NTA BO'LSA O'RNI BOSHQA...

Keyingi yillarda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning yangi tizimi joriy etilgani ko'plab o'ksik qalblarga quvonch, shodlik tuyg'ularini olib kirdi.

Bugun o'z xonadonida oilaviy bolalar uyi tashkil etib, mehrga muhtoj qalblarga issiq bag'rini ochgan tashabbuskor oilalar ko'p.

Furqat tumanidagi “Ingichka” mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Hurriyatxon va Ravshanbek Komilovlar oilasi Qo'qon shahridagi Mehribonlik uyida tarbiyalangan 9 qizni o'z oilasi bag'riga olib, “Mehribon qalb” oilaviy bolalar uyi tashkil qilganiga ko'p bo'lgani yo'q. Mehrga tashna qizlarning yangi oilaga ko'chishi xonadonga o'zgacha fayz-baraka, farovonlik olib keldi. Bir-birlari bilan bo'ylashib o'sayotgan qizlarga ko'pning havasi keladi. Bir etak bolalar jam bo'lgan go'sha hamisha gavjum, fayzli. Atrof saranjom-sarishta, xonadonda bo'y taratib, baraviy rivojlanayotgan anvoyi gullar jamalak sochli qizaloqlar sa'y-harakati mahsuli.

— Onam bizni tashlab, o'zga yurtlarga ketib qolgan, — deydi Fotima Qahhorova. — Mehribonlik uyida hamma narsa bor edi. Lekin ota-ona, yaqinlar mehr-muhabbatini topish qiyin. Bu oila bag'riga kelib, ko'nglimiz ko'tarildi. O'zaro bordi-keldi, qo'ni-qo'shinchilik singari urf-odatlar tufayli hayotga umidimiz, kelajakka ishonchimiz yuksaldi. Bu yerga kelganimga uch yildan oshdi.



Lekin o'zimizni shu yerda tug'ilib, kamolga yetgandek erkin his qilaman. Sinfdoshlarim, boshqa tengqurlarim bilan eski qadrdonlardek inoqlashib ketganmiz. Birga mashg'ulotlarga qatnamiz, dam olib, hamsuhbat bo'lamiz. Bu yerda mehnat qilish, uy-ro'zg'or tutish bilan bog'liq ko'nikmalarimiz oshdi. Avvallari bunday imkoniyatlar yo'q edi. Bizga hamma narsani tayyor holda berishardi. Bu bizni bir jihatdan yalqov, erinchoq qilib qo'yardi. Hozir hamma narsaga o'z kuchimiz, imkoniyatlarimizdan kelib chiqib erishishga harakat qilaymiz. Masalan, tandirda non yopishni bilmaganman. Endi opa-singillarim bilan jamlanib, savat-savat non yopaymiz.

Oilaning kenja farzandi Komila Abdumalikova tumanidagi 22-umumta'lim maktabining 4-sinfida tahsil olmoqda. Maktabdan so'ng tumandagi musiqa va san'at maktabida tashkil etilgan zardo'zlik to'garagida kasb-hunar o'rganmoqda. Opalaridan ibrat olgan Osiyo dutorchilik to'garagining faol a'zosi. Shahnoza Abdullayeva, Fotima va Zahro Qahhorova bu yil umumta'lim maktabini tamomlab, oliy ta'limda o'qishni davom ettirish taraddudida mashg'ulotlarga zo'r bermoqda.

— Qizlarim ko'zlaridagi shukronalik, bir-biriga mehri ko'rib, butun charchoqlarimni unutaman, — deydi Hurriyatxon Komilova. — Harakatlarimiz besamar ketmayotganiga shukr qilaman. Qizlarim — qalb qo'rimdagi lolalarim. Ularni hayotga tayyorlash, bilim va ko'nikmalarini oshirishda ota-onaning xizmati, ta'lim-tarbiyasi

beqiyos. O'zim katta oilada voyaga yetganman. Keliin bo'lib tushgan xonadonim ham bolajon oila. Shu bois, qizlar bilan tezda til topishdik. Har biri o'ziga xos fazilat, iqtidorga ega. O'qish, fan, kasb to'garaklaridan tashqari uy sharoitida pishiriqlar tayyorlash, bichish-tikish sirlarini o'rgatishga harakat qilyapman. Asosiysi, hayotda o'z o'mini topish, jamiyatga kerakli inson etib kamolga yetkazish. To'ng'ich qizlarimni kelin qilish istagida xonadonimizga kelayotganlar juda ko'p. Yaqinda qizim Marjonani turmushga uzatdik. Qudalarim har kuni qo'ng'iroq qilib, shunday aqlli farzandni tarbiyalab voyaga yetkazganimiz uchun rahmat aytadi. Bu har qanday ota-ona uchun katta baxt.

Mehrga to'la maskanda yashayotgan qizlarning boshqalardan kam bo'lmay kamolga yetishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ular o'zbekona urf-odat, an'analar asosida hayotga tayyorlanmoqda. Uy-joylarni tartibga keltirish, qo'ni-qo'shinchilik, supra, xo'jalik bilan bog'liq barcha ishlarni hamjihatlikda qilish an'anaga aylandi.

— Mahallamizda “Murg'ak qalb” va “Mehribon qalb” oilaviy bolalar uylari bor, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Azizbek Ergashev. — Ulardan tez-tez xabar olib turamiz. Oilaviy bolalar uyidagi yoshlar mahallamizning suyuqli farzandlariga aylanib ketgan. Hududimizda bo'layotgan turli tadbirlarda ular har jihatdan faol ishtirok etadi.

Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum